

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MAVLONOVA KLARAXON MAXMUTOVNA**

**ONA TILI DARSLARIDA MATN TUZILISHINI  
O‘RGATISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Mavlonova Klaraxon Maxmutovna**

Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasi .....5

**Mavlonova Klaraxon Makhmutovna**

Methods of teaching the structure of the text in the lessons of the mother tongue..... 35

**Мавлонова Кларахон Махмутовна**

Методика обучения структуре текста на уроках родного языка.....67

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....72

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MAVLONOVA KLARAXON MAXMUTOVNA**

**ONA TILI DARSLARIDA MATN TUZILISHINI  
O‘RGATISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Ped246 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.




<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Niyozmetova Roza Xasanovna</b> pedagogika fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Yusupova Shohidaxon Jaloliddinovna</b> pedagogika fanlari doktori, professor <b>Xudoyberganova Durdona Siddiqovna</b> filologiya fanlari doktori, professor <b>Axmedova Maloxat Ergashevna</b> pedagogika fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Buxoro davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2019.fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "7" 12 soat 10<sup>o</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (276 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "27" 11 kuni tarqatildi.

(2023-yil "27" 11 dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi).

  
  
**Q.B.Yo'ldoshev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor  
**Q.U.Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., dotsent  
**S.Ashirboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor  


## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'lim tizimida tilni matn yarata olish darajasida o'qitish, matn tuzish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonini rejalashtirish, o'quvchilarning ko'rsatmali materiallarga asoslanib matn tuzish ko'nikmasini takomillashtirish, yozma nutq o'stirishning inson tafakkuriga ta'siri, matn tuzilishini baholash, matn tuzish mashg'ulotlari mazmuni, ijodiy yozma faoliyatni rag'batlantirish usullari kabi masalalar tadqiq etildi. Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Amerika, Koreya, Shveysariya, Turkiya, Vengriya, Rossiya va Xitoydagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida til va adabiyot fanlarini matn yaratish (esse yoza olish) sari yo'naltirgan holda o'qitish vazifalari qo'yildi, o'qitish mazmuni va metodlariga aniqliklar kiritish orqali til ta'limi sifatini oshirish, nutqiy va lingvistik malakalar integratsiyasiga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda ta'lim oluvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda turli uslubdagi matnlarning til xususiyatlarini matn yaratish darajasida o'rgatish, matn tuzish strategiyalarini o'rganish, matn tuzishning kognitiv muammolari: matn mavzusi, o'quvchining matn tuzishda mavzuga oid bilimlardan xabardorligi, matn tuzishni rejalashtirish: mazmuni belgilash, tashkillashtirish, umumlashtirish, matn tuzish jarayoni: matnda birliklar, sintaktik butunlik, paragraflarni shakllantirish, matn tuzish yakunida uni qayta ko'rib chiqish hamda baholash masalasi, matn tuzilishiga doir ta'lim mazmuni va metodlarini ishlab chiqishning nazariy masalalari tadqiq etilmoqda. Ona tilining matn tuzilishi bilan bog'liq me'yorlari, nazariy ma'lumotlaridan yozma nutqni ijodiylik tavsifida o'rgatish, matnning (murakkab sintaktik butunlikning) tuzilishiga xos til xususiyatlarini ta'lim mazmunida aks ettirish, o'quvchilarning mantiqiy izchillikda, fikrlarni o'zaro bog'lanishda ifodalash tarzidagi ijodiy ishlarga monand qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda ta'lim mazmunini isloh qilish va uni yangi sifat bosqichiga ko'tarish bilan bog'liq jarayonda ona tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish ham dolzarb masalaga aylanib, ona tili fanini o'qitish konsepsiyasi, Milliy o'quv dasturi<sup>1</sup> ishlab chiqildi, "Ona tili" darsliklarining yangi avlodi kommunikativ va kognitiv-pragmatik yondashuvlar asosida yaratila boshlandi. Bugungi kunda "ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish"<sup>2</sup>, ijodiy matn yaratishni ta'minlovchi ta'lim mazmuni va usullarini takomillashtirish, matn tuzilishiga doir qoidalar, mashq va ish turlari tizimini ishlab chiqishda amaldagi "Ona tili" darsliklari imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish masalalarini maxsus tadqiq etish o'quvchilarning nutqiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/6008663> 2022.11.05.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli Farmoni // Xalq so'zi, 2016-yil 14-may, 94-son.

kompetensiyasi hamda ijodiy tafakkurini talab darajasida shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ 2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.**<sup>3</sup> Ona tili ta’limida matn lingvistikasini, xususan, matn tuzilishini o‘qitish bo‘yicha jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari hamda oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Angliya), Princeton university, Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSH), Rheinische Friederich-Wilhelms-Universität Bonn (Germaniya), Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Sciyence and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University (Janubiy Koreya), Ta’lim akademiyasi (Rossiya), University of Strasbourg (Fransiya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya)da tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ta’lim bosqichlarida matn tuzilishini o‘rgatish metodikasiga oid olib borilgan tadqiqotlar asosida ayrim ilmiy natijalar olingan: til ta’limida matn tarkibini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda hikoya, tasviriy, tavsifiy va dalillovchi matnlar tuzish malakasini hosil qilishning samarali ekani asoslangan (Amerika); matn tuzish strategiyalarini o‘rganishning yozish ko‘nikmasi rivojiga ta’siri

---

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Bandura A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies. – New York: Cambridge University Press, 1995.; John H. Holland Redwood City, California. – Addison-Wesley, 1998; Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. – P. 176– 88.

o'rganilgan, matnning qanday yozilganini tahlil qilish, ya'ni sarlavha, til birliklari va matn mazmunidagi uyg'unlikka ahamiyat berish orqali o'quvchilarning matnni erkin, ijodiy yoza olish darajalari ortgani hamda uni baholay olishlari aniqlangan (Turkiya); yozish strategiyalarini o'rganish orqali matn tuzish jarayonini modellashtirish masalasi (Amerika), matn qismlarining tartibga solinishi, lug'atdan foydalangan holda jummalarni so'zga aylantirish, matn tuzish mezonlari belgilangan (Turkiya); matn tuzishning kognitiv muammolari asoslangan (Angliya); matn tuzilishini o'rganishda o'qituvchining roli, o'quvchilarda yozish ko'nikmasini shakllantirish, matnni rasmiylashtirish usullari ishlab chiqilgan (Amerika); yozuv faoliyatining o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishi, o'quvchi tasavvurini rivojlantirishi isbotlangan (Yaponiya), ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish metodikasi hamda ona tili darslarida matn yaratish texnologiyasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston).

Jahon lingvodidaktikasi va til o'qitish metodikasida matn turlari, matn tuzilmasini o'rgatish, matniy xatolar ustida ishlash, matnni tahrir qilish, uni qayta ishlashga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: yozma nutqni rivojlantirishning inson tafakkuriga ta'siri, matn tuzish funksiyalari va uning yozma nutq ko'nikmasini rivojlantirishdagi o'rni, matn tuzish jarayonini rejalashtirish, o'quvchilarning ko'rsatmali materiallarga asoslanib matn tuzish malakasini oshirish, o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish, matniy kompetensiyani shakllantirish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish insho yozish jarayoni bilan bog'langan. U.Dolimov, O.Madayevlarning metodik ishlari<sup>4</sup>, N.Sattorova<sup>5</sup>, M.Hazratqulovning tadqiqoti<sup>6</sup> shular jumlasidandir. Umumiy o'rta ta'lim jarayonida ona tili va o'zbek tilini (davlat tili) o'qitish, o'quvchilarning matn yaratish bilan bog'liq nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini o'stirish masalalari M.Rixsiyeva, T.Ziyodova, R.Yo'ldoshev, R.Safarova, Sh.Yusupova, X.Muxitdinova, F.Aminova, N.Alavutdinova, N.Bekniyozova, A.Hamroyev, G'Hamroyev, Z.Salishevalar tomonidan, rus tilini o'qitish jarayonida matn tuzilishini o'rgatish masalasi Y.M.Sorokina, G.N.Urinbayeva, S.Sadixova tomonidan o'rganilgan<sup>7</sup>.

<sup>4</sup>Долимов У. Иншо қандай ёзилади? / Олий ўқув юртига кирувчилар учун иншо ёзиш бўйича методик кўрсатмалар. – Т.: ТошДУ нашри, 1985. – 32 б.; Мадаев О. Иншо қандай ёзилади? / Ўрта махсус ўқув юртларининг ўқитувчилари учун методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 88 б.; Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z. va b. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Т., 2020. – 103 б.

<sup>5</sup> Сатторова Н. Ўқувчиларнинг иншо ёзиш малакаларини такомиллаштириш (5-синфда она тили ўқитиш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 1995. – 141 б.

<sup>6</sup> Ҳазратқулов М. Адабий таълимда иншонинг ўрни ва уни ташкил этишининг илмий-методик асослари: Пед. ф. б. ф.д-ри дисс. – Самарқанд, 2018. – 154 б.

<sup>7</sup> Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб борилаётган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларга матн тузишни ўргатиш методикаси. Пед.фан.номз. ...дисс. – Т., 2009.; Зиёдова Т.У. Матн яратиш технологияси. Монография. – Т.: Фан, 2008. – 160 б.; Yo'ldoshev R.A., Rixsiyeva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2019.; Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Т.: Фан, 1995. – 108 б.; Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришининг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): Пед. фан. док. дисс. – Т., 2005. – 279 б.; Мухитдинова Х.С. Ўзбек тилини ўқитишда узлуксизликни таъминлашнинг илмий-методик асослари: Монография. – Т.: Fan va texnologiya, 2008. – 238 б.; Аминова Ф.Ҳ. Ўқувчиларни

MDH davlatlari olimlaridan: I.R.Galperin, T.A.Ladijenskaya, L.I.Velichko, L.M.Loseva, M.R.Lvov, V.G.Goreskiy, O.V.Sosnovskayalarning tadqiqotlari va metodik qo‘llanmalarida rus tili darslarida matn tuzilishi ustida ishlash mazmuni hamda usullari kabi masalalar tadqiq qilingan<sup>8</sup>.

Xorij olimlaridan: R.Bracewell, M.Scardamalia, C.Bereiter, J.Britton, P.Burtis, C.Bereiter, M.Scardamalia, J.Tetroe, C.Englert, E.Hiyebertlar tomonidan matn yaratish, yozma ishlarni tashkil etish, matn tuzilishini o‘rgatishning anglash ko‘nikmasi rivojiga ta’siri muammolariga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>9</sup>.

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan maktablarning ona tili darslarida matn qismining ichki tuzilishi: gaplarning bog‘lovchili, olmoshli, ko‘makchili, yuklamali bog‘lanish usullari, 5–9-sinflar doirasida matn tuzilishiga doir qoidalar, ularni anglatishning vosita va metodlari, mustahkamlash uchun xizmat qiluvchi mashqlar tizimi masalalari maxsus o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy metodikasi” mavzusi doirasida bajarilgan.

---

мулоқот матни яратишга ўргатишнинг дидактик асослари: Пед.фан.номз. дисс. – Т., 2007. – 23 б.; Алаутдинова Н.Ф. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси (5-синф мисолида): Пед. фан. номз. дисс. – Т., 2008. – 156 б.; Бекниязова Н. Бошлангич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. – Т.: Фан ва технологиялар, 2012. – 160 б.; Салишева З.И. Ўзбек тили машғулотларида талабалар монолик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида). Пед.ф.б.ф.док-ри ... дисс. – Т., 2019. – 141 б.; Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш. Пед. фан.док-ри ... дисс. – Т., 2020. – 248 б.; Ҳамроев Ғ.Ҳ. Она тили таълимида ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг лингводидактик асосларини такомиллаштириш. Пед. фан.док-ри ... дисс. – Т., 2022. – 218 б.; Сорокина Е.М. Обучение построению сложного синтаксического целого на уроках русского языка в узбекской школе: Автореф. дис.канд.пед.наук. – Т., 1991. – 20 с.; 192.; Урумбаева Г.Н. Лингводидактические основы обучения учащихся 7–9-классов сложному синтаксическому целому как базовой структуре русской монологической речи (на материале школ с каракалпакским языком обучения): Автореферат канд.дисс... педнаук. – Т., 2001. – 19 с.; Садыхова, С. Композиционно-смысловая структура синтаксического целого. – Баку: Нурлан, 2010.

<sup>8</sup> Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. 138 с.; Обучение русскому языку в 7 классе: Метод. рекомендации к учеб. для 8 класса общеобразовательных учреждений / Т.А.Ладыженская, Л.А.Тростенцова, М.Т.Баранов и др. – М.: Просвещение, 2002. – 94 с.; Обучение русскому языку в 8 классе: Метод. рекомендации к учеб. для 8 класса общеобразовательных учреждений / Л.А.Тростенцова, Т.А.Ладыженская, И.А.Шеховцева и др. – М.: Просвещение, 2003. – 70 с.; Л.И.Величко. Работа над текстом на уроках. – Москва: Просвещение, 1983. 128 с.; Лосева Л.М. Как строится текст: пособие. для учителей. – М.: Просвещение, 1980. 96 с.; Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников: Пособие для учителя. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1985.; Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Р. Львов, В. Г. Горещкий, О. В. Сосновская. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 464 с.

<sup>9</sup> Bracewell, R. J., Scardamalia, M., & Bereiter, C. (1978). The development of audience awareness in writing // Paper presented at the annual meeting of the American Educational Research Association, Toronto, March. (ERIC Document Reproduction Service No. 154 433). <https://eric.ed.gov/?id=ED154433>; Britton, James. The Composing Processes and the Functions of Writing // In Research on Composing: Points of Departure. Eds. Cooper and Odell. Urbana: NCTE, 1978. 13–28. <https://sci-hub.se/https://doi.org/10.2307/1170204>; Burtis, P. J., Bereiter, C., Scardamalia, M., & Tetroe, J. (1983). The development of planning in writing. In B. Kroll & C. G. Wells (Eds.), Explorations in the development of writing (pp. 153–174). Chichester, England: Wiley.; Englert, C. S., & Hiebert, E. H. (1984). Children’s developing awareness of text structures in expository materials. Journal of Educational Psychology, 76(1), 65–74. <https://sci-hub.se/https://doi.org/10.1037/0022-0663.76.1.65>.

**Tadqiqotning maqsadi** umumta'lim maktablarining ona tili darslarida o'quvchilarga matnning tashkiliy-texnik hamda mazmuniy-mantiqiy tuzilishini o'rgatish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tilshunoslik va metodikaga oid adabiyotlar tahlili orqali matn tuzilishiga oid lingvistik asoslarni belgilash;

matn yaratish metodikasi bilan bog'liq asosiy yondashuv va tamoyillarni aniqlash; o'quvchilarga matn tuzilishi yuzasidan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni pedagogik, psixologik va metodik jihatdan aniqlash asosida qoidalar tavsiya qilish; "Ona tili" darsliklaridagi matn tuzilishini o'rganishga oid imkoniyatlarni aniqlash va ularni kengaytirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlar doirasida sinflar bo'yicha mavzularni aniqlashtirish va 5–9-sinflar uchun matn tuzilishiga doir mavzular asosida nazariy ma'lumotlar (qoidalar)ni belgilash;

matn tuzilishini o'rgatishga doir mashqlar va ish turlarini ishlab chiqish hamda didaktik materiallar tanlash;

bugungi kun talablari asosida ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasini ishlab chiqish hamda ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishga doir ta'lim mazmuni va usullarining samaradorligini aniqlash, matematik-statistik tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida 5–9-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent shahri, Namangan viloyati hamda Nukus shahridagi maktablardan 3992 nafar o'quvchi ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda pedagogik kuzatuv, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, sotsiologik metodlar (so'rovnoma, suhbat), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

matn yaratish metodikasi bilan bog'liq asosiy yondashuv va prinsiplar matn tuzilishining o'ziga xosligi nuqtayi nazaridan: ta'lim jarayonini farqli, funksional-semantik, modulli, pragmatik, lingvistik, integrativ yondashuv asosida tashkil etish; bilimlarni mustahkamlash, ko'nikmalarni hosil qilishda tanqidiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan yondashuvni qo'llash; mashqlar tizimini kommunikativ, ijodiy va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqishga yo'naltirish orqali takomillashtirilgan;

ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishga oid nazariy ma'lumot: ta'rif, tavsif, tasnif farqlanib, o'quvchilarda matniy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan joriy-taktik, strategik va variativ qoidalar kognitiv-pragmatik jihatlarga ko'ra takomillashtirilgan;

matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlar doirasida 5–9-sinflar uchun matn tuzilishiga doir ta'lim jarayoni hamda ushbu jarayonda qo'llanuvchi konstruksiyalash-sintezlash, adaptiv, noadaptiv, evristik va algoritm shaklidagi

mashqlar 4K yondashuvi: kritik, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiya asosida ishlab chiqilgan;

6–7-sinf “Ona tili” darsliklari mazmuni matnning funksional-semantik turlari: rivoya-matn, tasvir-matn, muhokama-matnning kompozitsion qurilishiga xos didaktik materiallar bilan boyitilib, 5–9-sinflar uchun matn tuzilishini o‘rgatishga oid “Qismdan butungacha”, “Men muharrirman”, “Tasvir va matn”, “Chizmani tavsifla”, “Taqqoslaymiz, farqlaymiz”, “Tahrir va tahlil” kabi innovatsiyalar asosida matn tuzilishini spiralsimon o‘rgatish metodikasi takomillashtirilgan;

ona tili ta’limi uchun matn qismini murakkab sintaktik butunlik, abzas yoki matn qismi deb atash; matn qismlarining olmoshli, bog‘lovchili, ko‘makchili, yuklamali, modal so‘zli bog‘lanishi kabi lingvistik asoslar ta’lim nazariyasi va amaliyoti prinsipi asosida aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“Ona tili” darsliklarining matn tuzilishini o‘rganishga doir yondashuvlaridan ona tili fanini o‘qitish konsepsiyasi, ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi loyihasi, Ijod maktablari uchun o‘quv dasturi ishlab chiqishda foydalanilgan;

5-sinflar uchun “Matn tuzilishiga oid qoidalar” nomli o‘quv-metodik qo‘llanma, “Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish” nomli metodik qo‘llanma ishlab chiqilib, ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan;

6–7-sinflar uchun “Ona tili”, ijod maktablarining 7-sinfi uchun “Ona tili” darsliklari yaratilgan;

oliy ta’lim bakalavr talabalari uchun 2 qismdan iborat “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan oliy ta’limda ona tilini o‘qitish metodikasi, lingvodidaktika asoslari, og‘zaki va yozma nutq o‘stirish metodikasi fanlarining o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** amal qilingan yondashuv va tamoyillar, qo‘llangan usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammo yuzasidan respublikamizdagi hamda xorijiy olimlarning g‘oyalari, amaliyotchi o‘qituvchilarning tajribalariga tayanilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tilshunoslik va metodikaga oid adabiyotlardagi matn tuzilishiga oid qarashlarning o‘rganilgani hamda lingvistik asoslar aniqlangani; o‘quvchilarga matn tuzilishi yuzasidan beriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida 5–9-sinflar uchun nazariy ma’lumotlar (qoidalar) ishlab chiqilgani; matn tuzilishiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar asosida mavzular mundarijasining ishlab chiqilgani; 5–9-sinflar uchun matn tuzilishiga doir mavzular asosida nazariy ma’lumotlar (qoidalar) belgilangani; mavzu doirasida tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, matn tuzilishini o‘rgatishga doir ta’lim mazmuni va usullarining samaradorligi aniqlangani, matematik va statistik tahlil berilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar, amaliy tavsiyalar "Ona tili" darsliklarini yaratishga, ona tilini barcha umumta'lim fanlari bilan integrativ o'qitish sifatini oshirishga, oliy ta'limda mutaxassislik fanlaridan darslik va qo'llanmalar yaratishga, ixtisoslik fanlarini o'qitishga, malaka oshirish kurslarida, shuningdek, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining dars jarayonida foydalanishlariga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

matn yaratish metodikasi bilan bog'liq asosiy yondashuv va tamoyillar, matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlar doirasida 5–9-sinflar uchun matn tuzilishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan mavzular mundarijasi, amaliy mashqlar; matn tuzish va xatolar ustida ishlash; tuzilgan matnni tahrir qilish mashqlari hamda innovatsion ish turlaridan Respublika ta'lim markazi faoliyatida UNICEF bilan hamkorlikda tayyorlangan ona tili fani dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 23-martdagi 01/11-01/6-168-son ma'lumotnomasi). Natijada ona tili fanidan tayyorlangan Milliy o'quv dasturining o'quvchilar lingvistik hamda yozma nutq kompetensiyasiga qo'yilgan malaka talablar qismi takomillashtirilgan;

matn tuzilishiga oid nazariy qoidalar, mashq va topshiriqlar, ish turlariga oid tavsiyalar asosida 6-sinf "Ona tili"; 7-sinf "Ona tili" darsliklarini yaratishda, xususan, matn bilan ishlash, matn yaratish va tahrir qilishga oid o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2023-yil 23-martdagi 01/11-01/6-172-son ma'lumotnomasi). Natijada ona tili fani darsliklari mazmunining matn tuzish bilan bog'liq bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchilarning matn yarata olish layoqatini oshirish, shuningdek, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishi nuqtayi nazaridan boyishiga xizmat qilgan;

matn bilan ishlash orqali nutqiy va lingvistik kompetentlikni shakllantirishga oid tadqiqot natijalari: ona tili darslari uchun matn tuzilishiga oid lingvistik asoslar, matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlar doirasida 5–9-sinflar uchun matn tuzilishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan mavzular mundarijasi, evristik mashqlar hamda innovatsion ish turlari, 5-sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan qo'llanmadan O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida 2017–2020-yillarda bajarilgan "FZ – 2016-0908165532-raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023-yil 5-apreldagi 177-son ma'lumotnomasi). Natijada ona tili darslarida matn tuzilmasiga oid qoidalarni amalda qo'llash, matn tuzishda bog'lovchi vositalarni qo'llash, matnga maqol, hadis, hikmatli so'z, she'riy misralarni kiritish talab etiladigan topshiriqlar orqali matn ustida ishlash metodikasi takomillashgan;

matn tuzilishi bilan bog‘liq innovatsion usullar, matn yaratish va tahrir qilishga oid o‘quv topshiriqlaridan Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktablarining 7-sinf “Ona tili” (I qism); 7-sinf “Ona tili” (II qism) darsligini yaratishda foydalanilgan (Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligining 2023-yil 8-sentyabrdagi 01-11-1523-son ma‘lumotnomasi). Natijada ona tili darsligi mazmuni “Ijod qilamiz”, “Tahrir va tadqiqot” rukni bilan boyitilgan; tasviriy matn yozish, esse tuzilmasi, matn sarlavhasi, matn qismlari, matn bilan bog‘liq nazariy ma‘lumotlar va o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarda matn tuzish va xatolar ustida ishlash ko‘nikmasining rivojlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilingani.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 5 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta (10 tasi respublikada va 3 tasi xorijiy jurnalda) maqola nashr ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 243 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rganishning ilmiy va lingvometodik asoslari aniqlangan, ona tili darslarida o‘quvchilarga matn tuzishni o‘rgatishning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik imkoniyatlari masalasi tahlilga tortilgan.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining ona tili darslarida o‘quvchilarda matnlarni savodli, ongli ravishda tuzishga doir bilim berish, ko‘nikma va malakalarni, nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirish, ularni zarur nutqiy muloqotga tayyorlash, matn tuzilishi bilan bog‘liq komponentlarni aniqlash va ajratish, bir so‘z bilan aytganda, qoidalar uchun lingvistik asos tarzidagi matniy ta‘lim mazmunini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zamon talabidir.

O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishda matn tuzilishini o‘rgatish eng muhim ta‘limiy maqsadlardan biridir. O‘quvchilarga yaxlit matnga xos funksional-semantik tuzilish xususiyatlarini, matn yaratish qonuniyatlarini o‘rgatish orqali og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb

ahamiyat kasb etadi. Gap turlarini va ularning o‘zaro bog‘lanishini matn yaratish darajasida o‘rganish, shu asnoda matn tuzilishiga doir bilim va malakalarni egallash o‘quvchilarda aniq maqsad sari intilishni yuzaga keltirib, ona tilini samarali egallash uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zero, til hodisalari asosan bog‘lanishli nutq orqali harakatga kelib, o‘zining real kommunikativlik xususiyatini namoyon qiladi. Ushbu materiallar, ular bilan bog‘liq qoidalar matn tuzilishi orqali o‘rganilmas ekan, egallangan bilim va malakalar ko‘proq lingvistik kompetensiyani shakllantirish darajasida qolib ketaveradi.

Tilshunoslikka doir adabiyotlarda talqin qilinishiga ko‘ra matn tuzilishi ikki xil ma‘noda: keng va tor ma‘nolarda tushuniladi. Keng ma‘noda matn kirish, asosiy qism va xulosadan iborat ekani, ular bilan bog‘liq ayrim o‘rganish muhim bo‘lgan til birliklari mavjudligi nazarda tutilsa, tor ma‘noda matn sintaksisiga oid manbalarda ajratilayotgan murakkab sintaktik butunlik va abzas bilan bog‘liq matn tuzilishi nazarda tutiladi. Ayni tor ma‘nodagi matn tuzilishi keng qamrovga ega bo‘lib, ta‘limiy birliklarni ajratish va uni shu birliklar asosida o‘rganish ishlarini tashkil etish, bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash va rivojlantirish, ushbu bilimlarni qoidalar va mashqlar tizimi sifatida shakllantirish mumkin.

5–9-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarga matn tuzilishini o‘rganish imkonini beradigan, ya‘ni ta‘limiy birliklarni o‘zida aks ettiradigan komponentlarni aniqlashtirish, ular yuzasidan qoidalar shaklida qanday bilimlar berish kerakligi muammosini lingvistik asoslarni aniqlab olish orqaligina hal etish mumkin. Shu fikrdan kelib chiqib matn tilshunosligiga doir ilmiy-nazariy manbalarni o‘rganish, matn tuzilishini belgilovchi komponentlarni aniqlashtirish bilan bog‘liq tahlillar amalga oshirildi. Zero, matnning kichik bir qismi orqali butun matn tuzilishini o‘rgatish qulay bo‘lgan yaxlit komponentni (aniq til birliklari jamlamasini) ajratish, atash va shu komponent asosida matnning tuzilish xususiyatlari yuzasidan ma‘lumotlarga ega bo‘lish, matn tuzishga doir qoidalarni shakllantirish va mashqlar tizimini vujudga keltirish mumkin.

Bugun ona tili ta‘limi sohasida quyidagi masalalar bilan bog‘liq lingvistik asoslarni aniqlashtirish ehtiyoji mavjud:

- 1) matn qismini qanday atash (murakkab sintaktik butunlik, abzas yoki matn qismi) maqsadga muvofiq ekani;
- 2) matn qismida gaplarning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari va vositalari;
- 3) matn qismining birinchi (qisman oxirgi) gapi;
- 4) matn qismida ayrim murakkab sintaktik qurilmalar.

Dissertatsiyada ushbu masalalar yuzasidan ma‘lumotlarni o‘rganish va to‘plash, xulosalar chiqarish maqsadida matn tilshunosligi (matn lingvistikasi) hamda lingvodidaktikaga doir manbalar tahlilga tortilgan<sup>10</sup>.

<sup>10</sup> Расулов И. Мураккаб синтактик бутунлик // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, 1-сон.; Тухсанов М. Микротекст и система выражения эго когерентности в узбекской художественной речи: Автореф. дисс.к-та фил. наук. – Т., 1987.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Т., 1989.; Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Дорилфунун ва педагогика ин-тлари талабаларига кўлл./ [Махсус муҳаррир Л. Т. Бобохонова]. – Т.: Ўқитувчи, 1992.; Мамажонов А., Абдупатоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона, 2002.; Валгина Н.С. Теория текста. – Москва, Логос. 2003.; Левченко Е.В. О первичных и вторичных свойствах текста // Стереотипность и творчество в тексте. – Пермь, 2004, Вып.7. – С. 174–184; Антонова Е.С. Где искать ресурсы для обновления школьной методики?/ Русский язык в школе. – 2007. № 6.; Боймирзаева С. Бадий матнда кўшма гап. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008.; Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Т.:

Matn lingvistikasiga oid manbalardan ma'lumki, matn qismini qanday atash (murakkab sintaktik butunlik, abzas yoki matn qismi) maqsadga muvofiq ekani uzoq yillik bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Hozirgi paytda matn hodisasining uch asosiy va keng tarqalgan tavsifi mavjud. Birinchidan, matn til tizimining fonema, morfema, so'z, gap kabi birliklariga nisbat berilgan holda qaralib, ushbu tizimning eng yuqori bosqichidagi birlik sifatida talqin qilinadi. Tabiiyki, bunday yondashuvda matn grammatika nuqtayi nazaridan o'rganilib, asosiy e'tibor matn tuzilishini ta'minlovchi sintaktik-mazmuniy munosabatlar, sintaktik aloqalarni shakllantiruvchi leksik-grammatik vositalar majmuasini aniqlashga yo'naltiriladi. Ikkinchidan, tavsif markazida "faoliyatdagi, harakatdagi lison" g'oyasi turadi hamda matn til tizimining nutqdagi mahsuli sifatida talqin etiladi. Nihoyat, uchinchi talqinga ko'ra, matn nutqiy muloqot tizimi birligidir, unda muloqot ishtirokchilari – adresant va adresat munosabati, maqsadi ifodalanadi<sup>11</sup>.

"Metodikada matn ikki jihatdan talqin qilinadi: 1) grammatik jihatdan, 2) pragmatik jihatdan. Grammatika orqali matn tuzilishi bilan bog'liq tushunchalar o'rganilsa, pragmatika matniy til hodisalarining nutqda qo'llanishini o'rgatadi.

Ona tili darslarida grammatika bilim berish vositasi sifatida namoyon bo'ladi, pragmatika esa mashqlar orqali bilimlarni ko'nikma va malaka darajasida qo'llashni ko'zda tutadi"<sup>12</sup>. Grammatikaning matn qismlari bilan bog'liq sohasi matn sintaksisi (matn lingvistikasi) deb atalmoqda, ayni paytda matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlar qanday nomlanishi kerakligi masalasida aniq bir to'xtamga kelinmagan. Dissertatsiyada mazkur muammoga yechim izlash jarayonida fikrlar, tahlil va talqinlarga tayangan holda har qanday kattalikdagi matndan ajratib olinganda o'z sintaktik tuzilishi jihatidan mustaqillik va tugallanganlik xususiyatlarini saqlab qoluvchi murakkab sintaktik butunlik ta'limiy birlik sifatida belgilanishi, abzas uning shakliy komponenti, murakkab sintaktik butunlikning uni o'quvchiga ta'sir kuchini oshirish, mantiqiy urg'u berish maqsadida bir necha abzasga bo'lib ko'rsatish vositasi deb qaralishi kerak, degan xulosaga kelindi. Ayni paytda o'zbek tilida xatboshi tushunchasi mavjudligi, ushbu tushuncha ma'nosida abzas atamasidan foydalanilmasligini unutmazlik lozim, zero, o'zbek tilshunosligida abzas murakkab sintaktik butunlikni atash tarzida tilga olinadi.

---

Fan, 2008. – 160 b.; Юртаев С.В. Содержание языкового образования и речевого развития учащихся. «Начальная школа», 2009. № 10.; Осипова Э.Н. Лингвистика текста и текстовый аспект изучения синтаксиса в школе. Учебно-методические рекомендации. Издание 3-е, дополненное. – Архангельск: Поморский государственный университет им. М.В.Ломоносова, 2009.; Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дarsларида ўқувчиларни матн тузишга ўргатиш. Пед.фан.номз.... дисс. – Т., 1996.; Brinker K. Linguistische Textanalyse. Eine Einf'u'tung in Grindbegriffe and Methoden. – Berlin, 1997.; Ҳакимов М. Ўзбек тили прагматикасини ўрганиш: Услубий қўлланма. – Фарғона, 2011.; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Т.: Фан, 2013.; Qurbonova M. Matn tilshunosligi. – Т.: Universitet, 2014. – 114 b.; Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Т.: TDPU, 2011.; Yo'ldoshev R., Rixsiyeva M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2019.; Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. [Matn]: o'quv qo'llanma. – Т.: Ishonchli hamkor, 2021. – 188 b. va b.

<sup>11</sup> Левченко Е.В. О первичных и вторичных свойствах текста // Стереотипность и творчество в тексте. – Пермь, 2004, Вып.7. – С. 174– 184; Brinker K. Linguistische Textanalyse. Eine Einf'u'tung in Grindbegriffe and Methoden. – Berlin, 1997.

<sup>12</sup> Антонова Е.С. Где искать ресурсы для обновления школьной методики?/ Русский язык в школе. – 2007. № 6. – С. 12

Maktab ona tili ta'limida o'quvchilarni berilgan kichik mavzuda matn tuzishga o'rgatish uchun murakkab sintaktik butunlik atamasidan foydalanish noqulayligini inkor etib bo'lmaydi. MSBni qanday atash kerakligini amaliyot orqali aniqlashtirish mumkin, xolos. Yangi avlod darsliklarida mazkur atama ma'nosida "matn qismi/qismlari" birikmasi qo'llanmoqda.

II. Matn qismida gaplarning o'zaro bog'lanish xususiyatlari va vositalari haqidagi ma'lumotlarni aniqlash tadqiqot oldida turgan asosiy vazifalardan yana biridir. Matn qismlarining (murakkab sintaktik butunliklarning) ichki tuzilishiga doir lingvistik asoslarni aniqlash matn tuzilishini o'rgatishga doir muhim lingvodidaktik asoslarni vujudga keltirish imkonini beradi. Matn lingvistikasiga oid mavjud manbalarda bu masala ham umumiy tarzda yoritilgan.

Tilshunoslikka va metodikaga oid manbalarda MSBdagi gaplarning o'zaro bog'lanish usullari (bog'lovchili bog'lanish, ko'makchili bog'lanish, olmoshli bog'lanish va b.) umumiy tarzda sanalgan, misollar keltirilgan, lekin ayrim bog'lanish usullari, masalan, olmoshli bog'lanish, bog'lovchili bog'lanish ushbu so'z turkumlarining ma'no turlariga ko'ra o'ziga xosliklari talqiniga o'tilmagan, ya'ni gaplarni, matn qismlarini bog'lovchi vositalarning o'ziga xos jihatlarini yanada aniqlashtirish talab etiladi.

Murakkab sintaktik butunlik matn qismi sifatida o'zining tuzilish komponentlariga ega: kichik mavzuga ishora qiluvchi reja moddasi, xatboshi, boshlama, asosiy qism, xulosa, matnning birinchi gapi, gaplarning o'zaro mantiqiy, mazmuniy bog'lanish usullari, gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalar: olmoshli bog'lanish, bog'lovchili bog'lanish, ko'makchili, yuklamali, modal so'zli bog'lanish, ko'chirma gaplar o'rnida maqol, hikmatli so'z, hadis, sitata, she'riy misralar qo'llanishi.

III. Tadqiqot oldida turgan navbatdagi masalalardan biri matn qismining ichki tuzilishi, uning birinchi va oxirgi gapi bilan bog'liq.

Matn qismida gaplarning o'zaro bog'lanish xususiyatlari matn turlariga ko'ra ham o'ziga xoslik kasb etadi. Bu o'rinda yaxlit matn strukturasi bilan matn qismining strukturasi orasidagi farqlanish ham hisobga olinishi lozim. "Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi" nomli metodik qo'llanmada mualliflar bir necha abzasdan iborat butun bir matnning kompozitsion qismlari bilan MSB (abzas) kompozitsion qurilishini o'zaro taqqoslab, umumiy va farqli jihatlarini ochib berishgan.

Tilshunoslikka va metodikaga oid adabiyotlarda MSBning ichki tuzilishida birinchi va oxirgi gapning (boshlama va xulosaning) shakllanish xususiyatlari ma'lum darajada yoritilgan bo'lsa-da, ushbu fikrlarni yanada oydinlashtirish, qoidalar tuzish uchun lingvistik asoslar (ta'limiy birliklar) shaklida aniqlashtirish taqozo etiladi.

IV. Matn qismida ayrim murakkab sintaktik qurilmalarning yuzaga kelishi asosan ko'chirma gaplar, qo'shma gaplar bilan bog'liq.

Matn qismining qurilishida ayrim o'ziga xosliklar kuzatiladi. Masalan, murakkab sintaktik butunlikning olmoshdan deyarli boshlanmasligi, unda lirik (ba'zan esa mavzuviy) chekinishlar kuzatilishi, tarkibida qo'shma gap turlarining,

ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarning, ko‘chirma gap sifatida maqol, hikmatli so‘z, hadis, she‘riy misralar, sitataning ishlatilishi tabiiy bir holdir.

Umuman, MSB qismida murakkablashgan gaplarning o‘quvchilar inshosida ko‘p, ammo turli xatolar bilan qo‘llanadigan ko‘rinishlarini qoidalashtirish uchun aniq tavsiflarga muhtojlik seziladi.

Tadqiqotning navbatdagi vazifasi sifatida maktab ona tili ta‘limida matn tuzilishiga oid qanday ma‘lumotlar o‘rganilayotgani, metodik adabiyotlarda nimalar yoritilgani va tavsiya qilingani, ona tili o‘quv fani davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlari, darsliklar talablari, materiallari va imkoniyatlarini o‘rganib chiqish, metodik shart-sharoitlar aniqlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1) ona tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini ta‘minlash uchun xizmat qiluvchi rasmiy hujjatlar, metodik adabiyotlar tahlili;

2) ona tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, ular orasida so‘rovnoma o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish;

3) o‘quvchilarning matn tuzilishiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarining bugungi holatini aniqlash.

“Ona tili” o‘quv dasturlarida belgilangan talablar doirasida yaratilgan darsliklarda matnning asosiy qismi kichik mavzularni ifoda etuvchi, xatboshidan boshlanadigan qismlardan, har bir qism (murakkab sintaktik butunlik yoki abzas) boshlama, asosiy qism, xulosa qismlardan iborat bo‘lishi, qismlarda gaplarning o‘zaro bog‘lanishi, qismlarning o‘zaro bog‘lanishi kabi ichki bo‘linishlar, bog‘lanishlar tizimli ravishda tushuntirilmagan. Aslida matn tuzilishi deganda ko‘proq mazkur jihatlar nazarda tutiladi.

Ona tili fanidan 1999-yili tasdiqlangan davlat ta‘lim standartida murakkab sintaktik butunlik, uning ichki tuzilishiga doir talablar aks etganligi, 2010-yilgi uzviylashgan davlat ta‘lim standartida va 2017-yilgi davlat ta‘lim standartida matnning ichki tuzilishiga doir talablarning katta qismi tushirib qoldirilgani, murakkab sintaktik butunlik tushunchasi umuman tilga olinmagani, ona tili o‘quv dasturida murakkab sintaktik butunlik haqidagi standart talablari oldindan (1999-yildan) ko‘rsatilmagani ma‘lum bo‘ldi. 2020–2021-o‘quv yili uchun e‘lon qilingan “Ona tili fani milliy o‘quv dasturi” loyihasida matn tuzib yozish talabi sinflar bo‘yicha aniqlashtirib borilgan. 9-sinf dasturida o‘quvchilarni matniy jihatdan savodxon qilib tarbiyalash, matniy savodxonlik asosida ularni hayotga tayyorlashdek mas‘uliyatli, o‘ta murakkab, ayni paytda amalga oshirish zarur bo‘lgan yo‘nalish e‘tiborsiz qoldirilmagan: matn tuzib yozish talabi boshlang‘ich sinflardan e‘tiboran belgilana boshlagan, 9-sinfda mazkur talablar yanada kengaytirilgan.

“Ona tili” darsliklaridagi nazariy ma‘lumotlar tahlilidan ma‘lum bo‘ladiki, ularda matn tuzilishiga doir nazariy ma‘lumotlar juda oz bo‘lsa-da, bor. 5–9-sinflar “Ona tili” darsliklarida keltirilgan sinfda yoki uyda bajarish uchun tavsiya qilingan matn tuzish, matn yaratish, insho yozish talab etiladigan ayrim mashq va topshiriqlar ham mavjud. Lekin darsliklarda uzluksizlik va uzviylik asosida beriladigan nazariy ma‘lumotlar (qoidalar va tavsiflar) tizimi o‘z ifodasini topmagan. Ayrim nazariy ma‘lumotlarda til birligining gaplarni o‘zaro bog‘lash

uchun xizmat qilishi ham aytilgan bo'lsa-da, bularga misollar keltirilmagan, mashq va topshiriqlar asosida mustahkamlash ko'zda tutilmagan.

So'rovnomadan ma'lum bo'lishicha, ayrim ona tili o'qituvchilari uchun matn tuzish mashqlari orqali nima tekshirilayotgani aniq emas, ular asosan imlo va ishoraviy xatolariga; matn hajmiga (mavzuning yoritilish darajasiga) e'tibor beradilar; matn tuzishga doir topshiriqni berishdan oldin uning tuzilish komponentini o'rgatish kerak emas, o'quvchilar matn tuzilishini amaliy o'rganaveradilar, deb o'ylaydilar; matn tuzilishi deganda matnning kirish, asosiy qism, xulosadan iborat ekanini, matnning abzaslardan, abzaslar esa o'zaro turli vositalar yordamida bog'langan gaplardan tuzilganini tushunadilar, matn tilshunosligiga oid nazariy adabiyotlar bilan tanish emaslar, "Ona tili" darsliklarida berilgan ayrim nazariy ma'lumotlar bilangina tanishlar; nazariy ma'lumotlarning o'zaro bog'lanayotgan gaplar degan jihati mashq bilan mustahkamlanmagan; matn tuzilishiga doir qoidalarni bilgan taqdirda ham uning uchun matnni tekshirganda matniy xatolarga e'tibor berish shart emas, deb o'ylaydilar; ayrim o'qituvchilarga matn tuzilishiga doir metodik qo'llanmalar kerak emas, ular darsliklardagi nazariy ma'lumotlarni yetarli deb hisoblaydilar.

Ushbu vaziyatda ona tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamon talablari darajasiga yetkazish, ularda matn lingvistikasini o'rganish kasbiy tayyorgarlikni oshirishning ajralmas qismi degan g'oyani, lingvistik kompetensiyani shakllantirish, matniy yondashuv asosida o'quvchilarga matn tuzilishini o'rgatish borasida ham kasb mahoratini egallashga ishtiyoq uyg'otishi, mazkur bilimlar asosida o'quvchilarning yozma ishlarini tekshirganda matniy xatolarga e'tibor berib, ularning bosh sababi tegishli bilimlar berilmayotganini his etgan holda tahlil mundarijasiga kiritish sari undashi lozim.

Matn tuzilishini o'rgatish metodikasiga doir metodik adabiyotlarda bilim, ko'nikma va malakalar tavsiflanib, o'quvchilar matn tuzayotganda yo'l qo'yayotgan matniy xatolarni bartaraf etish uchun xizmat qiladigan mashq va topshiriq turlari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni matn tuzilishiga doir qoidalar sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

**"Ona tili darslarida matn tuzilishiga doir yondashuvlar va ulardan foydalanish mazmuni"** deb nomlangan ikkinchi bobda matn tuzilishini o'rgatishning asosiy yondashuv va tamoyillari hamda 5–9-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatishga doir ta'lim mazmuni bayon qilingan.

Matn tuzish bilan bog'liq yo'l-yo'riqlar bir qator komponentlar yuzasidan bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, pirovardida matn yarata olish layoqatini egallash, ya'ni nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni qo'lga kiritish sari qaratiladi. Ushbu maqsadlar uchun xizmat qiladigan, bugungi kun talablariga javob beradigan ta'lim mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari, metod va usullarini ishlab chiqish jarayoni bunda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillarni belgilashdan boshlanadi. Buning uchun, avvalo, pedagogikadagi eng oxirgi yondashuvlarga tayanish, xususiyl metodikada amal qilinadigan yondashuv va tamoyillarning umumiy pedagogikadagi tamoyillarga muvofiqligi, xususan, matn tuzilishini o'rganish jarayonida aynan qaysi jihatlarga tayanish lozimligiga e'tibor qaratildi.

“Matn lingvistikasi” nomli qo‘llanmada ta’kidlanishicha, “Konkret nutqiy asarlar – matnlarning asosida matn tuzishning umumiy tamoyillari yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxldordir. Bu jihatlar hisobga olinsa, matnni faqat nutq birligi emas, balki til birligi deb ham hisoblash kerak”<sup>13</sup>. Boshqacha aytganda, matn tuzilishini o‘rganish orqali, bir tomondan, nutq o‘stiriladi, ikkinchi tomondan, til hodisalari nutqda qo‘llay olish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasida o‘rganiladi.

Til o‘qitishning asosiy tamoyillari A.G‘ulomov va u bilan hamkorlikda yozilgan bir qator ishlarda o‘z aksini topgan. Matn vositasida grammatik materiallarni o‘rganishga doir yondashuv va tamoyillar A.Nisanbayevaning “O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirish (ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida)” mavzusidagi tadqiqot ishi va “O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirish (ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar uchun)” nomli metodik qo‘llanmasida izohlangan.

Metodist olimlarning til o‘qitish, bevosita matn yaratish bilan bog‘liq ravishda bayon qilgan asosiy yondashuv va tamoyillarni matn tuzilishining o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda matn yaratish metodikasiga daxldorlari tanlanib, uch nuqtayi nazardan ko‘rib chiqildi:

1) matn tuzishni o‘rgatishga oid bilimlarni (ta’lim mazmunini) ishlab chiqish va o‘rgatish yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan;

2) bilimlarni dastlabki mustahkamlash, ko‘nikmalar hosil qilishda qo‘llanadigan mashqlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan;

3) matn yaratish, ijod qilish, uni takomillashtirish uchun xizmat qiladigan mashq hamda ish turlarini belgilashda amal qilinadigan asosiy yondashuv va tamoyillar.

Birinchi guruh: farqli yondashuv, funksional-semantik yondashuv, modulli ta’lim yondashuvi, pragmatik yondashuv, lingvistik yondashuv, integrativ yondashuv va b.; darslik imkoniyatlarini hisobga olish tamoyili, matniy xatolarning oldini olish tamoyili, ta’limni insonparvarlashtirish tamoyili, o‘quvchining bilim darajasiga moslik tamoyili, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari va nutqiy rivojlanish darajasini e’tiborda tutish va b.

Ikkinchi guruh: qoidani amalda qo‘llashga asoslanganlik yondashuvi, tanqidiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan yondashuv va b.; bilimlarni dastlabki mustahkamlash, ko‘nikmalar hosil qilish tamoyili, mashqlar tizimini ishlab chiqish tamoyili; o‘quvchilarning til hodisalarini tahlil qilish tajribasiga tayanish tamoyili va b.

Uchinchi guruh: kommunikativ yondashuv; kommunikativ-faoliyatli yondashuv; faoliyatli (faoliyatga yo‘naltirilgan) yondashuv; ijodiy yondashuv; kompetensiyaviy yondashuv, emotsional-ekspressiv yondashuv, estetik yondashuv va b.

Matnning tashkiliy-texnik komponentlaridan biri reja tuzishdir. O‘quvchilar bu borada ham ayrim xatolarga yo‘l qo‘yadilar: reja moddalarini qorishtiradilar. Reja moddalarining izchilligini aniqlash, tuzatish borasida boshlang‘ich sinflarda

<sup>13</sup> Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Noshirlik ishi ta’lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 10-6.

egallangan bilim va ko‘nikmalarga tayanish tamoyili muhim o‘rin tutadi. Zero, boshlang‘ich sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi”, shuningdek, yuqori sinflar “Ona tili” darsliklarida berilgan reja moddalarini izchillik jihatidan tartiblashga doir mashqlar tavsiya etilganki, bu mashqlar pirovardida kutilgan natijaga erishish imkonini vujudga keltiradi. Masalan, 7-sinf “Ona tili” darsligida berilgan quyidagi mashq yuqoridagi tamoyilga mos keladi:

***Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsin.***

Hasan ibn al-Haysam – optikaning otasi
Olimning ko‘z va uning tuzilishi bilan bog‘liq qarashlari
Qadimgi odamlarning ko‘rish va yorug‘lik haqidagi tasavvurlari
Hasan ibn al-Haysamning tajribasi

Matn tuzilishiga doir bilimlarni egallash, tegishli ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda kommunikativ yondashuv alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra o‘quvchi matn tuzish qoidalariga amal qilgan holda matn yaratar ekan, nutq kimga qaratilayotgani va unga nimalar demoqchi ekanini mo‘ljallab olishi kerak. Bunday vaziyatni F.Aminova muloqot matni yaratish deb izohlaydi<sup>14</sup>. Odamlarning monologik shakldagi matn orqali muloqot qilishlari yozishmalarga o‘xshab ketadi. Mazkur mazmundagi kommunikativ yondashuvga amal qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarga shunday izoh berishi, ya’ni matn tuzish mashqini bajarishni topshirishdan avval: “Yaratadigan matningizni kimlar nima uchun o‘qishini taxmin qilib ko‘ringlar va o‘z oldingizga aniq bir maqsad qo‘yinglar”, – deb eslatib o‘tadi.

Matn tuzish qonun-qoidalarini o‘zlashtirish gap tuzishdan tortib to ish qog‘oz yoki asar yaratishgacha bo‘lgan kompetensiyani qo‘lga kiritish demakdir. Shunday ekan, butun ta’lim jarayoni o‘quvchilarda tegishli kompetensiyalarni shakllantirish, ya’ni ta’lim mazmuni va metodlariga kompetensiyaviy yondashuv asosida munosabatda bo‘lishni anglatadi.

“Ona tili fanidan milliy o‘quv dasturi”da “Nutqiy kompetensiyalar” nutqiy faoliyat turlari (og‘zaki nutq malakasi, yozma nutq malakasi, anglash malakasi, tinglab tushunish) bo‘yicha talablar orqali o‘z ifodasini topgan. “Lingvistik kompetensiya” ham nutqiy kompetensiyalarda belgilangani kabi nutqiy faoliyatning to‘rt turi bo‘yicha talablar tarzida belgilangan. Nutqiy kompetensiyalar ko‘proq nutqning kommunikativ jihatlariga yaqin talablarni aks ettiradi. Lingvistik kompetensiyalarda esa talablar “...izohlay olish”, “...qo‘llay olish” kabi ifodalar tarzida bayon qilinadi. Ushbu talablar til birliklarini anglash va nutqda qo‘llay olish mazmunida amalga oshadi. Ikkala kompetensiya nutqiy faoliyat bilan bog‘lanadi. Lekin matn tuzilishi bilan bog‘liq komponentlarni o‘rganmasdan turib lingvistik kompetensiyani qo‘lga kiritish qiyin: bunday

<sup>14</sup> Аминова Ф.Х. Ўқувчиларни мулоқот матни яратишга ўргатишнинг дидактик асослари: Пед.фан.номз. ... дисс.. – Тошкент, 2007. – 164 б.

vaziyatda uzoq mashq qilish orqali matn tuzish ko'nikmalarini amaliy yo'llar orqaligina egallash mumkin.

5-sinf ona tili darslarida o'quvchilarga matnning tuzilish elementlarini o'rgatishda, bir tomondan, shu sinf "Ona tili" darsligi imkoniyatlaridan kelib chiqiladi, ikkinchi tomondan, matn tuzilishi ustidagi ishlarda boshlang'ich sinflar va 5–9-sinflardagi uzluksiz ta'limni ta'minlash ko'zda tutiladi, uchinchi tomondan, shu sinfda matn tuzilishini egallashning dastlabki qadamlari qo'yiladi. Bu qadamlar ma'lum darajada boshlang'ich sinflarda olingan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni tiklashga qaratiladi.

Matn tuzishga aloqador til hodisalari asosan o'quvchilarning bog'lanishli nutq saviyasi, ular yo'l qo'yayotgan matniy xatolarning yaqqol ko'zga tashlanadigan jihatlari orqali namoyon bo'ladi.

5-sinf ona tili darslarida matn tuzishga doir qoidalar mundarijasiga matn mavzusi, sarlavha, matn qismlari, reja, xatboshi bilan bog'liq masalalardan tashqari quyidagi qoidalar kiritilgan va izohlangan:

- matnga tasnif kiritish bilan bog'liq;
- matnda she'riy misralarni joylashtirish bilan bog'liq;
- matnga rivoyat, hadis, maqol va matallar, hikmatli so'zlarni ko'chirma gap shaklida kiritish bilan bog'liq;
- matn qismlarida gaplarning izchilligini ta'minlash bilan bog'liq.

6–9-sinflar sinflarda matn tuzish bo'yicha o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan til hodisalari sirasida gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ularga 7-sinfda yordamchi so'zlar o'rganilishi munosabati bilan keng o'rin ajratilgan. Chunonchi, *matn tuzilishida olmoshli bog'lanish o'ziga xos vazifa bajaradi: gaplar o'rtasidagi uslubiy va mazmuniy aloqani amalga oshiradi. Darslikda olmosh haqidagi ma'lumot uning asosan barcha mustaqil so'z turkumlari, ba'zan yordamchi so'zlar, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llanishi, ularga ishora qilishi yoki so'roq bildirishi ta'kidlangan. Masalan: Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.*

Birinci gapda *undan* olmoshi *kitob* so'zi (ot) o'rnida, ikkinchi gapda *shuki* olmoshi *doimo tinchlik bo'lsin* gapi o'rnida qo'llangan. Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotgani matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.

Olmoshlar bajaradigan vazifasiga ko'ra izohlanganda, so'z, so'z birikmasi yoki gap o'rnida almashinish asosida qo'llanishi aytilsa, bu ularning uslub talabiga ko'ra sodir bo'ladi. Lekin bu almashinishda ma'no-mazmun jihati ham mavjud.

III shaxs kishilik olmoshlari avvalgi gapdagi so'z yoki so'z birikmasi o'rnida ortiqcha takrordan xalos bo'lish maqsadini ko'zda tutadi. Bu yerda ma'no-mazmuniy aloqa kamroq namoyon bo'ladi.

Ko'rsatish olmoshlarida ham uslub talabi, ham ma'no-mazmun aloqasi amalga oshiriladi. *U, bu, shu* olmoshlari avvalgi gap yoki gaplarda so'z yuritilgan predmet, harakat, belgiga ishora qiladi. *O'sha* olmoshi ancha oldinroq so'z yuritilgan predmet, harakat yoki belgiga ishora qiladi. *Bunday, shunday, shuncha*

kabi olmoshlar fikrni o'xshash predmetlar, belgilar, harakatlarga ko'chirish imkonini beradi.

Ko'rsatish olmoshi avvalgi gapda tilga olingan fikr predmetiga e'tiborni qaratadi. Masalan, ... (birinchi gapdagi ...ga ishora qilmoqda), *Bu kitob meniki* (bir gap tarkibida predmetni boshqalaridan ajratyapti).

O'zlik olmoshi (*o'z so'zi*) ikki gapni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladigan holatlar bor. Bu holatlar asosan ega kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda ro'y beradi. Masalan, Men... O'zim... Sen... O'zing... Biz... O'zimiz... Siz... O'zingiz... kabi. Lekin ta'kid ma'nosini kuchaytirish uchun Men o'zim, Sen o'zing... kabi qo'llanish holatlari ham uchraydi. Kamdan kam holatlarda ega ot bilan ifodalanganda ham o'zlik olmoshi bilan almashtiriladi: Sodiq... O'zi nimjon,...

To'pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradigan belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari bir-biriga qarama-qarshi ma'no anglatib, zidlash uchun ishlatiladi. Masalan: *Har kim o'z vazifasini bajarishi kerak. – Hech kim o'z vazifasini bajarmay qolmasligi kerak.*

*Hamma, barcha, bari, butun* olmoshlari uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z, bir necha gap yoki bir necha qismdagi shaxs, narsa-buyum, belgi, ish-harakatlarni jamlovchi, umumlashtiradigan gap vazifasida keladi.

Dissertatsiyada ta'lim mazmuni sirasida berilishiga ko'ra 8–9-sinflarda matn turlariga (tasvir-matn, rivoya-matn, muhokama matn), ularning ichki tuzilish xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

8-sinfda tasvir-matn, rivoya matn qismlarining birinchi gapi variantlari taqdim etilgan bo'lsa, 9-sinfda asosiy qism bilan bog'liq komponentlar o'rganilishi mumkin.

Muhokama-matnda abzas quyidagi mazmundagi gap yoki gaplardan boshlanadi:

- 1) biror muammoli masalani ilgari surish;
- 2) rejalashtirilgan navbatdagi masalani tilga olish (...masalasiga kelsak,...);
- 3) tasnif moddalaridan birini tilga olish (birinchi bosqichda, birinchidan, birinchi masala va h.k.);
- 4) o'rganilayotgan masalani tilga olish (...tahlil qilar ekanmiz,...) va b.

Nihoyat, matn tuzilishiga doir 5–8-sinflarda o'rganilgan qoidalarning tadrijiy davomi sifatida 9-sinfda o'rganiladigan mavzular bilan bog'lanmagan holda yangi qoidalar ishlab chiqiladi. Ushbu qoidalar ustida o'quv yili mobaynida o'tiladigan mavzular beradigan imkoniyatga qarab ish olib boriladi:

- 1) rivoya-matnning asosiy qismida voqea-hodisalar bayonidagi izchillik;
- 2) tasvir-matnning asosiy qismida voqea-hodisalar bayonidagi izchillik;
- 3) muhokama-matnning asosiy qismida voqea-hodisalar bayonidagi izchillik;
- 4) muhokama matn qismlarining oxirgi gapi;
- 5) matn tuzishda uslubiy qoidalarning amal qilishi.

Bir qator qoidalar o'quv yili oxirida takrorlanadi, shu maqsadda savol va topshiriqlar, mashqlar bajariladi.

5–9-sinf ona tili darslarida matn tuzilishi yuzasidan sinflar kesimida o'rganiladigan matniy tushunchalar asosidagi ta'lim mazmuni bosqichli ketma-ketlilik, tadrijiylik, yaxlit bir tizimni ko'zlagan holdagi tarkibiylikka asoslangan

holda, amaldagi darsliklar mavzulari bilan imkon qadar bog‘lanishda, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, o‘quvchilarning shaxsini, aqliy qobiliyatlarini o‘stirish sari yo‘naltiriladi.

**“Matn tuzilishiga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan uchinchi bobda ona tili darslarida matn tuzilishiga doir qoidalar mazmuni, ularni o‘rgatish yo‘llari hamda ona tili darslarida matn tuzilishiga doir qoidalardan amalda foydalanishga qaratilgan mashqlar tizimi bayon qilingan.

Tilshunoslikning adabiy til me‘yorlarini barcha uchun barobar qilib, barcha amal qiladigan tarzda qoidalashtirish ustuvor ahamiyatga ega. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qoidaning baza, asos, poydevor, tub, qonun-qoida, nizom ekanligi aytilib, quyidagi uch xil ma‘nosi keltirilgan:

1. Turli hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish va munosabatlarni ifodalovchi ma‘lum sistema, amal va sh.k.larning asosini tashkil etuvchi tartib, qonun.

2. Biror ish-harakat, amalning qanday bajarilishi haqidagi rasmiy ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq yoki umum tomonidan qabul qilingan tartibot.

3. Rasm, odat<sup>15</sup>.

Tildagi qoida tushunchasining ma‘nosi ko‘proq ikkinchi izohga mos keladi: qoidani ko‘rsatma, yo‘l-yo‘riq deb ham, umum tomonidan qabul qilingan tartibot deb ham, qonun-qoida deb ham anglash mumkin.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tili grammatikasi” kabi kitoblarda har bir til hodisasi termin, ta‘rif, tasnif, tavsif, qoida tarzida bayon etilgan. Maktabda ona tili ta‘limi uchun ular mo‘jaz (qisqa) shaklga keltirib beriladi. Termin, ta‘rif, tavsif, tasnif til hodisasini nutqda qo‘llash uchun ko‘rsatmalik, yo‘l-yo‘riqlik qilmaydi. Faqat qoidagina shu vazifani bajaradi.

Metodist olimlarning fikricha, o‘qituvchi o‘qitish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish uchun shuni tushunib olishi kerakki, o‘zi darsda o‘quvchiga uzatayotgan ma‘lumotlar axborot, ya‘ni kelgusidagi bilim yoki malaka uchun ashyo hisoblanadi, xolos. Ta‘lim jarayonining muvaffaqiyati o‘quvchilarda olinayotgan axborotlarni bilimga aylantirish malakasini shakllantirish bilan shartlanadi. Boshqacha aytganda, qoida til birligini to‘g‘ri qo‘llash haqidagi zaruriy bilimdir. O‘quvchi shu bilim bilan qurollangan taqdiridagina to‘g‘ri, savodli so‘zlay oladi, fikrini yozma ifodalay biladi.

Matn tuzilishiga doir qoidalarni bayon qilishda o‘qituvchi ularni mutlaqo yangi til birliklari deb bilmasligi, shuning uchun termin va unga ta‘rif, til sathiga mansubligini ko‘rsatuvchi tasnif, til birligiga doir tavsiflarni darslik asosida o‘rganilgan deb hisoblashi va bevosita matniy birlikka doir qoidanigina ajratib olishi mumkin va bu to‘g‘ri bo‘ladi.

Til birliklari sirasida mustasno holatlarda qo‘llanadiganlari ham mavjud bo‘lgani uchun ushbu mustasnolar asosiy qoida sifatida emas, balki eslatma tarzida berilishi kerak. Demak, qoidalar ikki xil bo‘ladi: asosiy qoidalar, eslatma-qoidalar. Masalan:

---

<sup>15</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. Шукрона – Ҳ. Тузатилган 2-нашри. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – 324-б.

*Eslatma: Va, hamda, ham biriktiruv bog'lovchilari gaplarni (qismlarni) tenglash, biriktirib bog'lash uchun xizmat qilmaydi, ular qo'shma gaplar hosil qilishdagina qatnashib, ko'proq sabab-natija ma'nosini ifodalaydi.*

Yoki:

*Qoida. Axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ... na so'z yuklamalari ba'zan ikki mustaqil gapni yoki matn qismlarini o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi.*

*Eslatma: -mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a singari qo'shimcha-yuklamalar gaplarni o'zaro bog'lash uchun deyarli ishlatilmaydi.*

Yuqoridagi ikkala eslatma o'quvchilarni til birliklari bilan bog'liq mustasno holatdan: gapni gapga bog'lovchi vositalar emasligidan xabardor qiladi.

Metodik adabiyotlarda qoidalarning quyidagi turlariga ham e'tibor qaratiladi: yod olish darajasida o'zlashtirish talab etiladigan qoidalar, joriy (taktik) qoidalar, istiqbolda asqatadigan (strategik) qoidalar, variativ qoidalar. Lekin matn tuzilishiga doir qoidalar asosan joriy (taktik) qoidalar tusida bo'lishi kerak, chunki qoida bilan tanishilgandan keyinroq nutqiy mashqlarga o'tiladi, qoida mashq jarayonida undan amalda foydalanish orqali o'zlashtiriladi.

Matn tuzilishida qoidalar berish shart bo'lmagan til hodisalari uchraydi. Masalan, ritorik so'roq gapning matnga qay tarzda kiritilishi lozimligi aytilmaydi. U kuzatishlar natijasi sifatida empirik, intuitiv holda anglanadi.

Qoidalashtirishga nisbat berib aytganda, til hodisalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) qoida bilan tushuntirilmaydigan til hodisalari;
- 2) qoida yordamida tushuntiriladigan til hodisalari;
- 3) darslikdagi nazariy ma'lumot yetarli bo'ladigan, qoidani misol keltirish yo'li bilan kengaytiradigan matniy til hodisalari;
- 4) qoidadan tashqari qo'shimcha izohlarni taqozo etadigan til hodisalari;
- 5) yangi tushunchani anglatish asosida beriladigan qoidalar.

5-9-sinflarda o'rganish ko'zda tutilayotgan qoidalarning ma'lum bir qismi o'quvchilarning matn tuzish yuzasidan amaliy, intuitiv egallagan bilimlariga ilmiy jihatdan tavsif berish mazmunida qabul qilinadi. Masalan, o'quvchilar *lekin, chunki, shuning uchun* va boshqa bir qator bog'lovchilarni nutqda qo'llay oladilar. Qoida ushbu amaliy malakalarni ongli ravishda idrok etishga undaydi. Onglilik kelgusida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, darsda o'quvchilardan tanishilgan qoidani yod olish talab qilinmaydi. O'quvchi tahliliy mashqlar jarayonida tegishli til birligining qo'llanishini qoida bilan asoslar ekan, o'zi sezmagan holda ushbu qoidani eslab qoladi, evristik mashqlar orqali ularni puxta o'zlashtiradi. Tuzilgan matnda yo'l qo'yilgan xatolar o'rganilgan qoidalarni eslash yo'li bilan tuzatilar ekan, qoidalar amaliy egallangan bilimga aylanib boradi.

Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rganish jarayoni turli holatlarda tanishish mumkin bo'lgan, yo'l-yo'riqlar, tavsiflar tipida ixcham tuzilgan qoidalar ustidagi ishlarni ifoda etadi. Bu ishlar qoidalarni amaliyot, nutqiy tajriba orqali o'zlashtirishga qaratiladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarga matn tuzishni o'rgatishga doir har bir ta'limiy qadamning natijasi mashq turlari yordamida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bosqichida yakunlanadi. Zero, har bir til hodisasi ma'lum bir ta'lim mazmuni bilan belgilanuvchi metodik tizimga ega bo'lsa-da, barcha matniy til birliklari qoida bilan tushuntirilishi, mashqlar bilan mustahkamlanishiga ko'ra umumiylik, metodik jihatdan o'xshashlik kasb etadi. Qoidalar orqali taqdim etilgan bilimlarni qay tarzda o'zlashtirish, qanday mustahkamlovchi mashqlardan foydalanish, ya'ni nimalarini amaliyotga joriy etish, ushbu tizimga doir qanday ko'nikmalar shakllanishi lozimligi, ko'nikmalar qanday mashqlar va ish turlari yordamida malakaga aylanadi-yu tegishli kompetensiyalar shakllanadi kabi bir qator savollar yuzaga keladi.

Matn tuzilishini o'rganish, matn tuzish, bog'lovchi vositalarni qo'llash, maqol, hadis, hikmatli so'z, she'riy misralarni matn tarkibiga kiritish talab etiladigan mashqlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) tahliliy (analitik) mashqlar;
- 2) konstruksiyalash-sintezlash mashqlari;
- 3) qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash mashqlari;
- 4) matn tuzish va xatolar ustida ishlash mashqlari;
- 5) tuzilgan matnni tahrir qilish mashqlari.

Dissertatsiyada ushbu mashq turlari mufassal bayon qilingan.

I. Qoidadan matn tuzish jarayonida foydalanishni o'rgatish tahliliy (analitik) mashqlar bajarish jarayonidagina samarali amalga oshiriladi. Tahlil til hodisasini qoida bilan tushuntirish mazmunida kechadi. Tahliliy (analitik) mashqlar o'quvchilarning aqliy, o'quv-biluv faoliyatini faollashtiradi, onglilikka asoslangan amaliy harakatlar o'ziga xos malakalarni tezroq shakllantiradi.

Til hodisasini qoida bilan izohlab tahlil qilish jarayoni bora-bora og'zaki bajarilmaydigan, qisqargan tarzda ongda kechadigan jarayonga ko'chadi. Bu holat qoidadan og'zaki tahlilga murojaat etmay, ikki vositadan birini tahlil asosida tanlash paytida kuzatiladi. Faqat bir holatda – o'quvchi til vositasini noto'g'ri tanlaganda qoidani eslash orqali og'zaki muhokama o'tkazilishi mustasno emas. Quyidagi mashq turlarini tahliliy mashq deb hisoblash mumkin:

*Matndagi biror gapning mazmuniga ko'ra tushib qolgan tinish belgilarini o'z o'rniga qo'yish.*

*Berilgan mavzular nima haqida, ularning qaysi jihatini aks ettirib yozish kerakligini (namunadagidek) izohlash.*

II. Konstruksiyalash-sintezlash mashqlari gap yoki matn tuzish mazmunida bo'ladi. Bunda konstruksiya tushunchasi qolip, model tushunchalaridan tuzilganlik ma'nosiga ko'ra farqlanadi. Matn qolipi muayyan shaklga keltirilgan gaplar yig'indisini ifoda etadi: gaplar miqdori va matn hajmi qat'iy chegaralangan bo'ladi. Matn modeli tushunchasi ham shu kabi xususiyat kasb etadi. Lekin konstruksiya tuzish ma'nosini bildirgani uchun ham na miqdoriy, na hajm jihatdan chegaraga ega bo'lmaydi. Sinfda 30 o'quvchi bo'lsa, shu 30 o'quvchining tuzgan matnlari deyarli bir-biriga o'xshamaydi. To'g'ri, gap konstruksiyasi deganda ma'lum gap qurilishi nazarda tutiladi. Lekin matnga nisbatan aytganda muayyan

qurilma ko‘zda tutilmaydi. Zero, matn biror mavzuda bir-biriga deyarli shaklan o‘xshagan gaplar tuzish yo‘li bilan tuziladi, yaratiladi, yuzaga keltiriladi.

Sintezlash tushunchasi asosan birlashtirish ma‘nosini anglatadi, unda, tabiiyki, qo‘shish, kiritish ma‘nolari ham aks etadi. Matndagi gaplarga nuqtalar o‘rniga foydalanish uchun berilgan so‘zlardan, bog‘lovchi vositalardan birini qo‘yish, gaplarga yoki matnga maqollardan, hikmatli so‘zlardan, hadislardan, she‘riy parchalardan birini kiritish ham asosan sintezlash jarayonini, gaplarning shakli qisman o‘zgaradigan holatlarda konstruksiyalash amalini ifodalaydi.

Shuni ham eslatish lozimki, ushbu turdagi mashqlar vaziyatdan kelib chiqqan holda ba‘zan tahlilga murojaat etish zaruriyatidan xoli emas.

Quyida konstruksiyalash-sintezlash tipidagi mashqlardan namunalar keltiramiz.

*Berilgan sarlavhalarni darak, so‘roq yoki undov gap shaklidagi mavzularga aylantirib yozish.*

*Berilgan mavzularni o‘qib, qay biri bosh, qay biri kichik mavzu bo‘la olishini aniqlash va ajratilgan ustunlarga yozish.*

III. Qisman ijodiy konstruksiyalash-sintezlash mashqlari o‘quvchilarning o‘z nutqiga bo‘lgan e‘tiborini kuchaytiradi, uni boyitish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqilligini oshiradi. Qisman ijodiy deyilganiga sabab matnga qo‘shiladigan faktik ma‘lumotlarni, bog‘lovchi vositalarni, maqol, matal, hikmatli so‘z, hadis va boshqalarni o‘quvchi o‘zi o‘ylab yoki biror manbadan qidirib topadi va matnga, matn tarkibidagi gapga kiritadi, ya‘ni ham ijodiy faoliyat ko‘rsatadi, ham konstruksiyalash-sintezlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Matn yoki gap mazmunidan kelib chiqib mazmun sofligini, ta‘sirchanligini ta‘minlaydi.

Bunday mashq turlari sirasida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

*Berilgan matnlarga sarlavhalar tanlash.*

*Berilgan jadvalni matnning mazmuni va tuzilishi asosida to‘ldirish.*

*Berilgan matnga biror she‘r yoki she‘riy misralar kiritish, matnning davomini yozish.*

*Matn mazmuniga mos ikki yoki to‘rt misrali she‘r tanlash va yozish.*

*Berilgan matnga hadis (maqol, hikmatli so‘z) kiritish va qo‘yilgan tinish belgilarini izohlash.*

IV. “Ona tili” darsliklarida asosan matn tuzish va kamdan kam o‘rinlarda matndagi xatolarni aniqlash tavsifidagi mashqlar berilgan. Bunday mashqlar shartida ba‘zan ma‘lum topshiriq ham aks etadi. Masalan: *Berilgan mavzuda dialogli kichik insho yozish. Berilgan mavzuda bir yoki bir necha qismli matn tuzish.* Bu kabi maxsus topshiriqlarning berilishidan qat‘i nazar, o‘quvchilar nima haqida yozish kerakligi haqida o‘ylashdan tashqari qanday yozish kerakligi (matn tuzish qoidalari) haqida bosh qotiradilar. Eng muhimi, yozuvchilar kabi so‘z tanlash ustida ishlaydilar. Lekin matn tuzish ko‘nikmasi hosil bo‘lmaguncha bu ish qiyinlik qilaveradi.

O.O.Xarchenko matn tuzishga doir bilimlarning malakaga ko‘chish jarayoni haqida shunday yozadi: “Binobarin, nutqiy ishlarni shunday qurish talab etiladiki, matn haqidagi bilimlarni uni yaratish uchun zarur xususiy malakalarga transformatsiyalash ta‘minlansin, boshqacha aytganda, o‘quvchilarga matniy

kompetensiyani egallashni o'rgatish kerak. Ushbu tushuncha ilmiy muomalaga rus tilida matn yaratishga doir bilimlar asoslarini tadqiq etgan M.Y.Dimarskiy tomonidan kiritilgan"<sup>16</sup>.

V. Tuzilgan matnni tahrir qilish mashqlari eng kam bajariladigan mashq turi sanaladi. I.A.Sotova olib borgan kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, "o'quvchilar o'zlari tuzgan matnlarni takomillashtirishga zaruriyat sezmaydilar. N.Jinkin va V.Mamushinlar bu holatni o'ziga xos psixologik omilning: fikr bayon qilish ustidagi ishning tugallanishi bilan tug'ilgan qanoat hissi ta'siri bilan izohlaydilar, bu narsa matn muallifiga yaratilgan matnga tanqidiy baho berishga xalaqit beradi. Ta'lim oluvchining o'zi o'z xatolarini sezmaydi"<sup>17</sup>. Ilg'or ish tajribali ona tili o'qituvchilari o'quvchilarga bir-birining tuzgan matnini tekshirishni topshirar ekanlar, yuqorida bayon qilingan ruhiy holatni hisobga olganday bo'ladi: O'quvchilar o'zlarining xatolarini payqamaydilar, lekin sinfdoshlari yo'l qo'ygan ayrim xatolarni ko'ra oladilar. Aslida o'quvchilarning bir-birlarining tuzgan matnlarini tekshirib, xatolarini aniqlashlari pirovardida o'z ishlariga tanqidiy munosabat bilan qarash hissini paydo qiladi. 6-sinf "Ona tili" darsligida ushbu mazmundagi topshiriqlar keltirilgan:

*Yozgan tarjimayi holingizni partadoshingiz bilan almashtiring. Matn bilan tanishib, xatolaringiz ustida birgalikda ishleng.*

*Tarjimayi hol matnidagi xatoliklarni aniqlang va ularni to'g'rilab, matnni ko'chiring.*

*Uyga vazifa. O'rganganlaringiz asosida oila a'zolaringizdan biriga o'z tarjimayi holini yozdiring. Xatoliklar bo'lsa, aniqlab, uni tuzatishga yordamlashing. O'qituvchingizga bu haqda og'zaki ma'lumot bering.*

Matnda gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlab, izohlash talab etiladigan mujassam mashq gaplarning o'zaro bog'lanish vositalarini matndan ko'ra olish, farqlay bilish, ma'no-mazmunini izohlash tavsifida tashkil etiladi. Shu maqsadda matn tanlanadi.

Tahlil uchun matn tanlashda ma'lum talablarga rioya qilinadi. G.N.Vladimirskaya tavsifli me'yorni ko'rsatib o'tadi: "...bunday ma'lumotlarni kiritishda sohalarni qamrab olish kengligi, matnlar qayerdan olingani emas, balki matnlarning o'zining emotsionalligi, originalligi, tushunariligi va maroqliligi asosiy rol o'ynaydi"<sup>18</sup>.

Kichik mavzuning ochib berilish izchilligini mujassam tahlil qilishning ahamiyati juda katta, chunki abzasda matn tuzilishining asosiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu yerda birinchi gapning mohiyati, unda asosiy fikr ifodalanishi, keyingi gaplar shu gap bilan turli mantiqiy-mazmuniy va grammatik ma'nolar orqali aloqaga kirishi, fikrni ma'lum izchillikda ochib berishi, shu maqsadda turli dalillar (maqol, hikmatli so'z, hadis, she'riy misralar, sitata, ayrim raqamli ma'lumotlar va b.) keltirilishi, aytilganlardan xulosa chiqarilishi kerak.

<sup>16</sup> Харченко О.О. Через постижение «тайн языка» — к текстовой компетенции. Начальная школа. 2007. №5. — С. 37.

<sup>17</sup> Сотова И.А. Мотивация самоконтроля над качеством письменного текста / Русский язык в школе. — 2007. № 4. — С. 8–14.

<sup>18</sup> Владимирская Г.Н.. Повышают ли культуру школьника современные учебники русского языка // РЯШ-2007. — С. 40.

“O‘zi yaratgan matnga sarlavha tanlash 5–9-sinf o‘quvchilari uchun juda muhim topshiriq. Bu ularda o‘z nutqiy-intellektual qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu topshiriqlar orqali o‘quvchiga matnni tanqidiy nuqtayi nazar bilan tahrir qilish, o‘zi va sinfdoshining nutqiy qobiliyatini baholash, matn mazmunidan kelib chiqib, sarlavha tanlash imkoniyati yaratiladi. O‘quvchi nomlash maqsadida o‘zi yaratgan matnni bir necha marta o‘qib chiqadi. Undan matn mazmuniga mos keladigan so‘z yoki so‘z birikmasini qidiradi va tanlaydi. So‘z tanlash kompetensiyasining o‘quvchi ongida mustahkamlanib, nutqiy kompetentlik darajasiga yetkazilishi pedagog mahoratiga bog‘liq. O‘quvchi tanlagan sarlavha, o‘qituvchiga uning so‘z tanlash mahorati, uslubiy savodxonlik, nutqiy kompetentlik darajasi haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkon beradi”<sup>19</sup>.

Shuningdek, mazkur bobda 5–9-sinflar kesimida matn tuzilishini o‘rgatishga oid “Men muharrirman”, “Tasvir va matn”, “Chizmani tavsifla”, “Begona qismni top”, “Gaplarni to‘g‘ri bog‘la”, “Matnni boyitamiz”, “Sarlavha tanlaymiz”, “Olmosh bilan almashtir”, “Taqqoslaymiz – farqlaymiz”, “Harakatsiz suhbat”, “Tahrir va tahlil”, “Qismdan butungacha” kabi innovatsion usullar ishlab chiqilgan.

Interaktiv usul ko‘proq guruhlarda ishlash jarayonida yaxshi samara beradi: guruhning muvaffaqiyati yo‘lida jon kuydirish guruh a‘zolarining hammasi bir xilda tayyorgarlik ko‘rishi uchun bir-biriga o‘rgatish mazmunidagi faollikka, hamjihatlikda qaror qabul qilish, birgalikda javob berish kabi muhim ruhiy-fiziologik holatlarga olib keladi.

“Sarlavha tanlaymiz”, “Sarlavha yoki mavzu”, “Mavzumi, sarlavha?”. Bu usul orqali o‘quvchilarga *sarlavha va mavzu* haqida ma‘lumot beriladi. Bunda matn mazmuniga mos *sarlavha tanlash* hamda ushbu sarlavhani yozish tartibi tushuntiriladi. Dastlab o‘quvchilarga matn nima haqida ekanini, uning mazmunini aniqlashga oid topshiriqlar beriladi. Matn mazmunidan xulosa chiqargan holda matnga olib kiruvchi, uning g‘oyasini ochib beruvchi sarlavha tanlash, sarlavha va mavzuni farqlash o‘rgatiladi. So‘ngra tanlangan sarlavhani shakllantirish: daftar markazida yozilishi, uning darak yoki so‘roq mazmunda shakllantirilishi, mazmuniga ko‘ra tinish belgidan foydalanilishi kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

*Topshiriq.* Matn qismlariga mos sarlavhalarni aniqlang. Diqqat, 2 tasi ortiqcha. Matn qismlari uchun sarlavha tanlashda sizga qaysi jumlar yordam berdi? Ularni aniqlab, yozing.

Namuna: A – “Unutilmas voqea” – bolaning kissasidagi siyohdon ag‘darilib, kiyimlari rangga bo‘yalgani uchun onasidan tanbeh eshitgan kuni.

	<i>To‘polonchi – a‘lochi</i>
<i>A</i>	<i>Kitobxonlik: kecha va bugun</i>
<i>B</i>	<i>Unutilmas voqea</i>
<i>D</i>	<i>Mening xislatim</i>
<i>E</i>	<i>Ko‘pkari o‘yini</i>
	<i>Sevimli mashg‘ulotim</i>

<sup>19</sup> Ziyadova T. O‘quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2019. 99-b.

Yuqorida keltirilgan topshiriq matn qismlariga mos sarlavha tanlashga qaratilgan. Bunda o'quvchilarga matn taqdim etiladi hamda matn xatboshilar orqali qismlarga ajratiladi. O'quvchilar har bir qismdan olgan xulosalari asosida berilgan sarlavhalaridan mosini tanlab qo'yishlari lozim.

5–9-sinf ona tili darslarida o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish ishlari matn tuzilishini o'rganish va matn tuzish mashqlari mazmunida amalga oshiriladi. Matn tuzish talab etiladigan mashqlar ijodiy faoliyat ko'rsatgan holda bajarilib, o'quvchilar ushbu mashqlar asosida o'z fikrlarini izchil, tushunarli, aniq, ta'sirchan ifodalash, gap tuzish, ularni bir-biriga bog'lash, elementar ijod qilish tajribasini orttiradilar.

O'quvchining matn tuzish bilan bog'liq ijod jarayoni fikr-mulohaza yuritish, tasavvurida paydo bo'lgan manzaralarni turli yo'llar bilan xotirlangan so'z bilan ifodalash, shu jarayonda o'z his-tuyg'ularini, o'z nuqtayi nazarini aks ettirish kabi aqliy, estetik, kommunikativ faoliyat tarzida kechadi. Matn yaratish jarayonining eng qiyin tomonlari fikrni izchil rivojlantirishdan tashqari kerakli so'zni tez va to'g'ri esga tushira olish, gap tuzishda so'z topish tufayli yuzaga keladigan to'xtamlarni mashqlar orqali bartaraf etish, gaplarni to'g'ri tuzish hamda bog'lanishlilikni ta'minlash kabi holatlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar matn tuzish – ijodiy ish bilan band bo'lishlari uchun ularga imlo lug'atidan va boshqa xil lug'atlardan (ma'nodosh so'zlar lug'ati, izohli lug'at va b.) foydalanishlariga ruxsat berish, so'zlarning qanday yozilishi, ma'no jihatdan so'zning to'g'ri tanlanganligi, tinish belgilarining to'g'ri qo'yilganligi haqidagi savollar tufayli yuzaga keladigan reflektiv to'xtashlar uzoqqa cho'zilmaligi uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, ona tili darslarida matn tuzish talab etiladigan mashq va topshiriqlarga o'quvchilarni ijod sari undash vositasi deb qarash, barcha ta'limiy tadbirlarni shunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

**“Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish samaradorligi”** deb nomlangan to'rtinchi bobda bir necha sinf uchun mo'ljallab tayyorlangan tajriba-sinov materiallari, tajriba-sinov darslarini tashkil etish masalalari va nazorat ishlarini o'tkazish parametrlari bayon etilgan.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari olib borildi: o'quvchilarning matn tuzishga doir mashqlarni qanday bajarganliklari o'rganildi, o'qituvchilar orasida so'rovnoma o'tkazildi va tegishli metodik xulosalar chiqarildi (bu haqda dissertatsiyaning 1.1-paragrafiga qarang).

Tadqiqotning ikkinchi izlanuvchi bosqichida matn tuzilishiga doir qoidalar, ularni mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlar, mashq turlari ishlab chiqila boshlandi, ayni paytda ayrim tajriba darslari tashkil qilindi. (bu haqda dissertatsiyaning II va III boblarida ma'lumot berib o'tilgan).

Tadqiqotning yakuniy (uchinchi) bosqichi uchun maxsus materiallar tayyorlandi. Materiallar matnning tuzilish komponentlariga doir qoidalar va mashqlar tizimidan iborat bo'ldi.

Quyida sinflar kesimida o'quvchilarning matn tuzilishiga oid bilim, ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov orqali ko'zda tutilgan parametrlar keltiriladi:

5-sinf:

1. Matn mavzusini aniqlash.
  2. “Mavzu” soʻzidan keyin matn mavzusini yozish.
2. Ikki moddadan iborat reja tuzib yozish.
3. Epigraf tanlab, uni ham oʻz oʻrniga yozish.
4. 1. Matnni xatboshilarga ajratgan holda koʻchirish.
  2. Matnning “adashgan” gapini aniqlab, joyiga qoʻyish.

6-sinf:

1. Berilgan gaplar juftini olmoshlardan biri yordamida bogʻlash.
2. 1. Boshlamaga qarab matn turini aniqlash.
  2. Bergan javobini qisqa izohlash.
3. Gaplarning bogʻlanish izchilligini tiklash, ketma-ketlikda ularga raqam qoʻyish.

7-sinf:

Berilgan gap juftliklarini olmoshlar va bogʻlovchilardan biri bilan bogʻlash.

8-sinf:

1. 1. Atov gaplardan keyingi gaplarda yoʻl qoʻyilgan xatolarni aniqlash.
  2. Davom ettirish mumkin boʻlgan gaplarni aniqlash.
- 2.1. Gaplardagi notoʻgʻri qoʻllangan kirish soʻzni aniqlash.
  2. Mos kirish soʻzni yozish.
3. Tasvir matnning birinchi gapidagi xatolikni aniqlash va ushbu matnning birinchi gapini yozish.
4. Rivoya matnning birinchi gapidagi xatolikni aniqlash va ushbu matnning birinchi gapini yozish.
5. Matnni tahrir qilish.
6. Gaplardagi takrorlangan soʻzni aniqlash va oʻrniga mos soʻzni yozish.

9-sinf:

1. Berilgan qoʻshma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratib boʻlmaydiganlarini aniqlash, qavs ichiga “-” ishorasini qoʻyish.
2. Berilgan gaplar juftini qavs ichidagi bogʻlovchi vositalardan mosini tanlab, tagiga chizib koʻrsatish.
3. 1. Berilgan qoʻshma gaplar orasidan sodda gaplarga ajratish mumkin boʻladiganlarini aniqlab, qavs ichiga “+” ishorasini qoʻyish.
  2. Bogʻlovchi vosita maʼnosini toʻgʻri chiziq bilan ajratilgan joyga yozib koʻrsatish.

Tajriba-sinov jarayonida yuqorida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, oʻquvchilarga sinflar kesimida soddadan murakkabga tomon zanjirli oʻqitish yondashuvi asosida matn tuzilishini oʻrgatishga oid oʻquv topshiriqlari, evristik mashqlar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlandi va taqdim etildi.

Tajriba-sinov ishlari bir necha hududda (Namangan viloyati, Toshkent va Nukus shaharlarida) tashkil etildi. Namangan viloyati Chust tumanidagi 21-maktab (oʻqituvchilar: I.Normuhamedova, O.Soatova, R.Nabiyeva), Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi 149-maktab (oʻqituvchilar: D.Tursunova, N.Sherqulova, F.Baratova), Qoraqalpogʻiston Respublikasi Nukus shahridagi 3-maktab (oʻqituvchilar: G.Masharipova, F.Ruzimbetova, Sh.Delekeyeva).

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish samaradorligi darajasining hududlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari**

Hududlar	Tajribadan oldin					Tajribadan keyin				
	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf
Namangan	138	120	27	216	96	150	120	26	261	104
Nukus	150	120	23	207	108	132	145	19	207	96
Toshkent	180	150	35	270	96	210	155	32	279	120
Jami:	<b>468</b>	<b>390</b>	<b>85</b>	<b>693</b>	<b>300</b>	<b>492</b>	<b>420</b>	<b>77</b>	<b>747</b>	<b>320</b>
Umumiy:	<b>1936</b>					<b>2056</b>				

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish samaradorligi darajasining jami ko‘rsatkichlari**

Nazorat ishining vaqti: tajriba-sinovdan	Topshiriq turini bajargan jami o‘quvchilar soni	To‘g‘ri bajargan	Matniy xato
Oldin	1936	697	1239
Keyin	2056	1217	839


Tajriba-sinovdan oldin va undan keyin nazorat ishlari sifatida matn tuzish mazmunidagi yozma nazorat ishlari tashkil etildi. Bunda o‘quvchilar tomonidan matn tuzilishi komponentlariga oid yo‘l qo‘yilgan xatolar hisobga olindi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish samaradorligi darajasini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo‘yicha o‘quvchilarning tajribadan keyin va tajribadan oldingi o‘rtacha o‘zlashtirishlari Styudentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil qilindi. Tajriba-sinovda jami 3992 nafar o‘quvchi, shundan tajribadan oldin 1936, tajribadan keyin 2056 nafari qatnashdi.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to‘plam berilgan bo‘lsin. Biri tajribadan keyin o‘quvchilar bilimining o‘rtacha ballari, ikkinchisi esa tajribadan oldin o‘quvchilar bilimining o‘rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o‘rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo‘lib, ular bajariladi.

Yuqoridagi jadvallar asosida tajriba va tajribadan oldingi o‘quvchilar o‘zlashtirishlari samaradorligini ko‘rsatuvchi  $H_1$  gipoteza va unga zid bo‘lgan  $H_0$  gipotezani tanlaymiz.

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:



1-rasm

